



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL

IYUN/6-SON, III-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
III-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| SUD BOSHQARUVCHILARI FAOLIYATINING IQTISODIY RAG'BATLANTIRISH TIZIMI VA ULARNING SUBSIDIAR JAVOBGARLIGI: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI | 12 |
| Soliyev Damirjon Nurmatovich | |
| BLOKCHEYN TEKNOLOGIYASI ASOSIDA MOLIVAVIY TRANZAKSIYALARNI NAZORAT QILISH TIZIMI (SMART-KONTRAKTLAR, MARKAZLASHMAGAN MA'LUMOTLAR BAZASI VA AUDIT IZLARI) | 18 |
| Olimova Mukhlisa Vohidjon qizi | |
| SANOAT SEKTORIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH: STRATEGIK AFZALLIKLAR VA TO'SIQLAR TAHLILI | 26 |
| Xatamov Ochildi Qurbonovich | |
| ТРАНСФОРМАЦИЯ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЕЁ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ | 32 |
| PhD. Юлдашева С.Ш | |
| TREND MODELLARI YORDAMIDA MEHNAT RESURSLARI SONINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH | 38 |
| Haydarova Dinora Atamurot qizi | |
| МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЫКУПА И ПРОДАЖИ КВОТ НА ОРОСИТЕЛЬНУЮ ВОДУ | 43 |
| Гоженко Борис Владимирович | |
| MOLIVAVIY LEVERIJ SAMARASI VA QARZ MABLAG'LARINI BOSHQARISHDA UNDA FOYDALANISH | 50 |
| Latipova Shaxnoza Maxmudovna | |
| XIZMATLAR SOHASIDA WEBMONEY TO'LOV TIZIMINI KOMPYUTERDA O'RNATISH VA SOZLASHNING IQTISODIYOTDAGI ROLI | 55 |
| Fazilat Esirgapovna Jomonqulova | |
| Nizomov Murod | |
| Qurbonboyeva Rayhon Bahronjon qizi | |
| MECHANISMS FOR THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF A HEALTHY LIFESTYLE | 58 |
| Shukhrat Mashrabboevich Mamadaliyev | |
| BANK SEKTORIDA OPERATSION SAMARADORLIK VA XAVFLARNI BOSHQARISHNI BAHOLASH | 62 |
| R.I.Rashidov | |
| A.N. Elmurodov | |
| A.A. Muhiddinov | |
| TRANSFORMING ECONOMIC GOVERNANCE IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL PUBLIC SECTOR TOOLS | 68 |
| Bokhodirov Boriykhon Boburovich | |
| Bahromjon Urmanov | |
| TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA VA KREDIT SALOHIYATINI BOSHQARISH | 74 |
| Ergashova Nilufar Sobirovna | |
| DEHQON XO'JALIKLARIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINING SHAKLLANISHI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR | 80 |
| Azizov Shohsuvor Yuldashevich | |
| VERTIKAL INTEGRATSIYALASHGAN BANK TUZILMASINI "YAGONA MFO" TEKNOLOGIYASI ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISH SXEMASI | 84 |
| Qo'shboqov Doniyorbek Maxramqulovich | |



| | |
|--|-----|
| O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA "YASHIL EKOTIZIM" VA RESURS SAMARADORLIGI (RECP)NI JORIY ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI HAMDA EMISSIALARNI KAMAYTIRISH SAMARADORLIGI..... | 90 |
| Do'stqobilov Ulug'bek Ibrohimovich | |
| TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN VA MOHIYATIGA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR | 94 |
| Pardayeva Ozoda Mamayunusovna | |
| СНИЖЕНИЕ ТЕХНИЧЕСКИХ И КОММЕРЧЕСКИХ ПОТЕРЬ ЭЛЕКТРОЭНЕРГИИ КАК НАПРАВЛЕНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАСПРЕДЕЛИТЕЛЬНЫХ СЕТЕЙ УЗБЕКИСТАНА | 100 |
| Маърупова Дилсора Абдулла кизи | |
| O'ZBEKISTON QURILISH SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING INSTITUTIONAL SHART-SHAROITLARI..... | 105 |
| Qodirov Sardorbek Isroiljon o'g'li | |
| АКАДЕМИЧЕСКИЕ НАВЫКИ И ОСОБЕННОСТИ ИХ ФОРМИРОВАНИЯ | 113 |
| Усманова Зумрад Исламовна | |
| Рахматуллаев Алижон | |
| Сайфитдинов Азизжон | |
| G'AZNACHILIK OPERATSIYALARINING BANKLIKVIDLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI (SILICON VALLEY BANK MISOLIDA)..... | 119 |
| Axadov Shahboz Shuxrat o'g'li | |
| ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТВЁРДЫМИ БЫТОВЫМИ ОТХОДАМИ В Г. ТАШКЕНТЕ: ОТ ПОЛИГОННОГО ЗАХОРОНЕНИЯ К РЕСУРСНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОМУ ИСПОЛЬЗОВАНИЮ | 127 |
| Джусупов Кубанычбек | |
| STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI AXBOROT TA'MINOTINING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH | 133 |
| Umidjon Kostayev | |
| DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR TEACHING STUDENTS OBJECTORIENTED PROGRAMMING IN A VIRTUAL COLLABORATIVE ENVIRONMENT USING GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE TOOLS | 140 |
| Saidova Dilfuza Ergashovna | |
| AUDIT SIFATI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH | 145 |
| Muydinov Erkin Jamaldinovich | |
| THE ROLE OF E-COMMERCE IN ECONOMIC DEVELOPMENT: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN'S DIGITAL TRANSFORMATION..... | 152 |
| Shakhriddinova Sitora Tolibjon kizi | |
| THE IMPACT OF SUSTAINABILITY PRACTICES IN THE AGRICULTURAL INDUSTRY IN UZBEKISTAN..... | 157 |
| Yorkin Ziyodullaev | |
| Munisa Bekmirzaeva | |
| РОЛЬ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В ЗЕЛЕНОМ РОСТЕ В УЗБЕКИСТАНЕ..... | 166 |
| Мохамед Эйд Али Балбаа | |
| Усманова Азиза Алишеровна | |
| OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING INNOVATSION YO'LLARI..... | 173 |
| Shakirxodjaeva Zuxraxon Rustamxanovna | |
| BARQAROR RIVOJLANISH HISOBOTLARINI TUZISH MASALALARI: XALQARO TAJRIBA VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI..... | 180 |
| Menglikulov Baxtiyor Yusupovich | |



| | |
|---|-----|
| THE IMPACT OF SUSTAINABILITY PRACTICES IN THE AGRICULTURAL INDUSTRY IN UZBEKISTAN | 184 |
| Yorkin Ziyodullaev Munisa Bekmirzaeva | |
| TASTE OF PLACE: HOW LOCAL-INGREDIENT SOURCING AFFECTS GUEST SATISFACTION AND MENU PROFITABILITY IN HOTEL RESTAURANTS | 193 |
| Bahodirova Durdona Atametova Sevara | |
| INTERACTIONS IN CREATIVE TOURISM: RESIDENTS' PERSPECTIVES IN UZBEKISTAN..... | 198 |
| Dildora Khodjaeva Mukhamedkhodjaevna Jasmin Raxmidinova | |
| XO'JALIK YURITUVCHISUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI | 204 |
| Bauyetdinov M.J. | |



XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI

Bauyetdinov M.J. – TDIU professori, i.f.d.

ORCID: 0000-0002-1383-8334

E-mail: m.bauetdinov@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligini ta'minlash masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida xo'jalik yurituvchi subyektlar likvidliligiga oid iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari o'rganildi hamda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidlilik holati tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida likvidlilikni yanada mustahkamlashga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: xo'jalik yurituvchi subyektlar, moliyaviy barqarorlik, likvidlilik, balans likvidligi, aktivlar likvidligi, to'lovga qobiliyatlilik.

Abstract: This article examines the issues of ensuring the liquidity of economic entities operating in the Republic of Uzbekistan. During the research process, the scientific views of economists on the liquidity of economic entities were studied, and the liquidity position of economic entities operating in Uzbekistan was analyzed. Based on the findings, practical recommendations and well-grounded conclusions aimed at strengthening liquidity management were developed.

Keywords: economic entities, financial stability, liquidity, balance sheet liquidity, asset liquidity, solvency.

Аннотация: В данной статье исследованы вопросы обеспечения ликвидности хозяйствующих субъектов, осуществляющих деятельность в Республике Узбекистан. В ходе исследования были изучены научные взгляды экономистов на вопросы ликвидности хозяйствующих субъектов, а также проведён анализ состояния ликвидности хозяйствующих субъектов, функционирующих в Узбекистане. По результатам исследования разработаны обоснованные выводы и практические рекомендации, направленные на укрепление уровня ликвидности и финансовой устойчивости субъектов хозяйствования.

Ключевые слова: хозяйствующие субъекты, финансовая устойчивость, ликвидность, ликвидность баланса, ликвидность активов, платежеспособность.

KIRISH

O'zbekistonda xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyot barqarorligini mustahkamlash, yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirish, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga ko'paytirish, investitsiya muhitini yanada takomillashtirish va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan, 70 milliard AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish hamda xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1].

Mazkur ustuvor yo'nalishlarning samarali amalga oshirilishi xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidligi va moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlash bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, bank kreditlaridan samarali foydalanish ko'lamini kengaytirish, debitor qarzdorlikning aylanish tezligini oshirish, likvid aktivlar va joriy majburiyatlar o'rtasidagi optimal mutanosiblikni ta'minlash orqali joriy likvidlilik darajasini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, pul oqimlari barqarorligini ta'minlash asosida moliyaviy barqarorlik darajasini oshirish, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga keng joriy etish orqali mahsulot tannarxini optimallashtirish, korxonalar rentabelligini yuksaltirish hamda sof foyda va aktivlar o'sishi o'rtasidagi



mutanosiblikni ta'minlash asosida aktivlar rentabelligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalari xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilar tomonidan uzoq yillardan buyon o'rganib kelinmoqda. Ular o'z tadqiqotlarida likvidlik va moliyaviy barqarorlikning nazariy-metodologik asoslarini yoritish bilan bir qatorda, ushbu ko'rsatkichlarni takomillashtirishga xizmat qiluvchi amaliy yondashuvlarni ham ishlab chiqqanlar. Quyida mazkur masalalar yuzasidan ilgari surilgan ilmiy-nazariy qarashlar tahlili keltiriladi.

K. Timofeeva va D. Pomelov bergan ta'rifga ko'ra, likvidlik – bu tovar-moddiy zaxiralarning tez va muammosiz pul mablag'lariga aylanish qobiliyati bo'lib, bunda likvid moddiy qimmatliklar o'zining nominal qiymatini saqlab qoladi [2].

F. Karaeva va Z. Abazovaning ta'kidlashicha, “xo'jalik yurituvchi subyektning likvidligi” tushunchasini izohlashdan oldin “balans likvidligi” va “aktivlar likvidligi” tushunchalariga aniqlik kiritish zarur. Ularning fikriga ko'ra, korxonalar balansining likvidligi korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini asosan ichki manbalar hisobidan qoplash qobiliyatini ifodalaydi hamda majburiyatlarning aktivlar bilan qoplanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Bunda aktivlarning pul mablag'lariga aylanish muddati majburiyatlarning to'lanish muddatiga mos kelishi lozim. Aktivlarning likvidligi esa aktivlarning o'z qiymatini sezilarli darajada yo'qotmasdan pul mablag'lariga aylanish qobiliyatini tavsiflaydi. Mazkur yondashuvlardan kelib chiqib, xo'jalik yurituvchi subyektning likvidligi korxonaning o'z qarz majburiyatlarini aktivlarni realizatsiya qilish (ichki manbalar) va zarurat tug'ilganda qarz mablag'larini jalb etish (tashqi manbalar) hisobidan qoplash imkoniyatini anglatadi [3].

A. Kurilovning xulosasiga ko'ra, korxonaning yetarli likvidlik darajasiga ega bo'lishi mulkdorlar manfaatlarini himoya qilish, foyda hajmini barqaror oshirish va kapital qo'yilmalarning samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, kreditorlar uchun ham korxonaning likvidligi qarz majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilishi va moliyaviy risklarning kamayishiga xizmat qiladi [4].

A. Muxachyova, Ye. Morozova va Ye. Pastuxovanning fikriga ko'ra, korxonalar likvidligini oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:


- ishlab chiqarish va aylanma mablag'larni samarali boshqarish, zaxiralarni optimallashtirish hamda likvid aktivlar ulushini oshirish;
- moliyaviy majburiyatlarni maqbullashtirish va pul shaklidagi likvid aktivlar hajmini ko'paytirishga xizmat qiluvchi moliyaviy barqarorlashtirish mexanizmlaridan foydalanish;
- debitor qarzdorlikni qayta moliyalashtirish, faktoring va forfeyting amaliyotlarini qo'llash orqali pul mablag'lari hajmini oshirish hamda debitor qarzdorlik aylanish tezligini jadallashtirish;
- foyda, rentabellik va tushum hajmini oshirish maqsadida aylanma aktivlardan samarali foydalanish;
- debitor qarzdorlikni o'z vaqtida undirish va aylanmadan tashqari aktivlarning asossiz o'sishini cheklash [5].

V. Kovalyovning fikriga ko'ra, kompaniya likvidlik ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni tanlashda ularning iqtisodiy samaradorligini miqdoriy baholash muhim hisoblanadi. Bunda amalga oshiriladigan xarajatlarni kutilayotgan iqtisodiy natijalar bilan taqqoslash zarur [6].

Ye. Zubovanning xulosasiga ko'ra, korxonaning likvidligi va to'lovga qobiliyatligini oshirish foyda hajmini ko'paytirish, moddiy aktivlar va debitor qarzdorlik hajmini optimallashtirish hamda kapitalning maqbul tarkibini shakllantirish orqali ta'minlanadi [7].

D. Larina va O. Kravchenkoning fikricha, likvidlik va to'lovga qobiliyatlik ko'rsatkichlari kompaniya majburiyatlari hamda ushbu majburiyatlarni qoplash uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan aktivlar o'rtasidagi nisbatni aks ettiradi. Shu sababli, likvidlik va to'lovga qobiliyatlikni mustahkamlash uchun majburiyatlarning to'lov muddatlarini aktivlarning pul mablag'lariga aylanish muddatlari bilan muvofiqashtirish muhim ahamiyatga ega [8].

A. Xabarova va I. Baranova o'z tadqiqotlarida “tashkilotning likvidligi” va “tashkilotning to'lovga qobiliyatligi” tushunchalarini qiyosiy tahlil qilib, ularning o'ziga xos jihatlarni ajratib ko'rsatganlar. Mazkur masalaga oid batafsil ma'lumotlar 1-rasmda keltirilgan. Olimlarning fikricha, likvidlik va to'lovga qobiliyatlik tushunchalari o'zaro farqlanuvchi jihatlarga ega bo'lsa-da, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Ularning xulosasiga ko'ra, tashkilotning likvidligi moliyaviy holatning muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, uni samarali boshqarish to'lovga qobiliyatlikni mustahkamlashga, moliyaviy barqarorlikni oshirishga hamda korxonalar faoliyatining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.



1-rasm. Tashkilotning likvidiligi va to'lovga qobiliyatligini o'zaro farqlovchi muhim jihatlar [9]

V. Borodinning xulosasiga ko'ra, faktoring korxonalarining likvidiligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Chunki debitor qarzdorlikni faktoring asosida topshirish uchun amalda mavjud debitor qarzdorlik bo'lishi yoki kelgusida yuzaga kelishi aniq bo'lgan debitor qarzdorlik to'g'risida ishonchli ma'lumot mavjud bo'lishi lozim [10].

Umuman olganda, bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning muvaffaqiyatli faoliyati ularning moliyaviy holatining barqarorligi va likvidiligiga bevosita bog'liq. Moliyaviy barqarorlik va likvidilik kompaniyaning qarz majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish qobiliyatini, resurslardan samarali foydalanish darajasini hamda investitsiyaviy jozibadorligini ifodalaydi. Shu sababli, xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun moliyaviy barqarorlik va likvidilikni ta'minlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, moliyaviy barqarorlik korxonaning iqtisodiy va moliyaviy faoliyati mustahkamligini, ya'ni o'z resurslaridan samarali foydalanish orqali ichki va tashqi moliyaviy risklarga bardosh bera olish qobiliyatini ifodalaydi. Likvidilik esa xo'jalik yurituvchi subyektning qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlarini belgilangan muddatlarda bajarish imkoniyatini anglatadi. Taniqli iqtisodchilar Laurens J. Gitman va Chad J. Zutter ta'kidlaganidek, likvidilik kompaniyaning moliyaviy barqarorligi va samarali rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biridir [11]. Moliyaviy barqarorlik va likvidilik ko'rsatkichlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ular birgalikda kompaniyaning moliyaviy mustahkamligi hamda investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi va likvidiligini ta'minlash ularning uzoq muddatli rivojlanishi, raqobatbardoshligi va barqaror o'sishini belgilovchi muhim omildir. Likvidilik va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy muvozanatini saqlashga, moliyaviy risklarni samarali boshqarishga hamda investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Kelgusida korxonalar rahbarlari va moliyaviy menejrlari moliyaviy ko'rsatkichlarning muntazam monitoringi va tahlilini amalga oshirib, zamonaviy moliyaviy boshqaruv usullaridan samarali foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ichki va tashqi moliyaviy omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan moslashuvchan strategiyalar korxonaning o'zgaruvchan iqtisodiy muhitda yanada muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning barqaror faoliyati va raqobatbardoshligini ta'minlashda moliyaviy barqarorlik hamda likvidilikni samarali boshqarish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu ko'rsatkichlarni



ta'minlash orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar nafaqat qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida bajaradilar, balki uzoq muddatli rivojlanish uchun mustahkam moliyaviy poydevor yaratadilar. Shu bois zamonaviy iqtisodiy sharoitda har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'z moliyaviy boshqaruv strategiyasini ilmiy yondashuvlar asosida takomillashtirib borishi zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida induksiya va deduksiya, ekspert baholash, statistik guruhlash, tarkibiy hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar xo'jalik yurituvchi subyektlar likvidligini yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlangan mamlakatlarda yetakchi kompaniyalar o'z egalik huquqini samarali boshqarish, korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish va investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga alohida e'tibor qaratadilar. Korxonalarining investitsiyalarni jalb qilish salohiyati, qo'shimcha aksiyalar chiqarish imkoniyatlari hamda uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarni joylashtirish samaradorligi ko'p jihatdan IPO ko'rsatkichlari orqali baholanadi [12]. Mazkur ko'rsatkichlar kompaniyalarning bozor mavqeyini mustahkamlash va uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

1-jadval
Respublika Nyu-York banki (AQSh) mijozlarning to'lovga qobiliyatligini baholashda qo'llaydigan moliyaviy koeffitsiyentlar [13]

| Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari | Me'yoriy daraja |
|---------------------------------------|-----------------|
| Joriy likvidlilik koeffitsiyenti | 2 : 1 |
| Tezkor likvidlilik koeffitsiyenti | 1 : 1 |
| Moliyaviy leveraj koeffitsiyenti | 1 : 1 |
| Moliyaviy marja koeffitsiyenti | 1 gacha |

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Respublika Nyu-York banki tomonidan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan mijozlarning to'lovga qobiliyatligini baholashda to'rtta moliyaviy koeffitsiyentdan foydalaniladi. Ushbu yondashuv mijozlarning moliyaviy holatini har tomonlama baholash imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari amaliyotida esa mazkur koeffitsiyentlardan asosan joriy likvidlilik koeffitsiyenti qo'llaniladi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidligini ta'minlashda pul mablag'larining joriy majburiyatlarga nisbati, joriy aktivlar va joriy majburiyatlar o'rtasidagi mutanosiblik, debitor qarzdorlik hamda tovar-moddiy zaxiralarning aylanish darajasi, shuningdek, tashqi moliyalashtirish manbalaridan mablag' jalb qilish imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etadi (2-jadval).

2-jadval
"O'zbekneftgaz" AJ joriy aktivlarining tarkibi, foizda [14]

| Joriy aktivlar | Yillar | | | | | | |
|--------------------------------------|--------|------|------|------|------|------|------|
| | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
| Tovar-moddiy zaxiralar | 0,1 | 4,5 | 4,6 | 3,9 | 3,8 | 7,5 | 4,4 |
| Debitor qarzdorlik | 78,1 | 47,1 | 30,4 | 30,9 | 42,2 | 78,7 | 90,2 |
| Pul mablag'lari | 3,1 | 9,9 | 25,8 | 25,1 | 30,9 | 8,3 | 0,4 |
| Qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar | 18,0 | 6,8 | 17,8 | 19,4 | 5,0 | 3,9 | 4,9 |
| Boshqa joriy aktivlar | 0,7 | 31,7 | 21,4 | 20,7 | 18,1 | 1,6 | 0 |
| Joriy aktivlar – jami | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, "O'zbekneftgaz" AJ joriy aktivlari tarkibida debitor qarzdorlik sezilarli ulushga ega. Bu kompaniyaning bozor ishtirokchilari bilan faol hisob-kitob munosabatlarini amalga oshirayotganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, pul mablag'lari ulushining nisbatan pastligi likvid aktivlar hajmini yanada oshirish imkoniyatlari mavjudligini anglatadi. Mazkur yo'nalishda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar kompaniyaning moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.




Korxonalarining likvidligi ko'p jihatdan joriy aktivlar va joriy majburiyatlar o'rtasidagi muvozanat bilan belgilanadi. Shu sababli, "O'zbekneftgaz" AJ joriy majburiyatlari tarkibini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega (3-jadval).

3-jadval
"O'zbekneftgaz" AJ joriy majburiyatlarining tarkibi, foizda [14]

| Joriy majburiyatlar | Yillar | | | | | | |
|-------------------------------------|--------|------|------|------|------|------|------|
| | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
| Savdo va boshqa kreditor qarzdorlik | 15,1 | 48,9 | 81,6 | 45,2 | 24,6 | 38,2 | 96,0 |
| Qisqa muddatli qarzlilar | 84,9 | 33,1 | 17,0 | 26,9 | 74,5 | 61,2 | 3,8 |
| Boshqa joriy majburiyatlar | 0,0 | 18,0 | 1,4 | 27,9 | 0,9 | 0,6 | 0,2 |
| Joriy majburiyatlar – jami | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |

3-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, "O'zbekneftgaz" AJ joriy majburiyatlari tarkibida asosiy ulushni qisqa muddatli qarzlilar va savdo hamda boshqa kreditor qarzdorlik tashkil etadi. Kompaniyaning qisqa muddatli qarzlari tarkibida tijorat banklaridan jalb qilingan kreditlar hamda sho'ba korxonalar oldidagi majburiyatlar muhim o'rin egallaydi. Mazkur moliyalashtirish manbalari kompaniyaning operatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash va investitsion loyihalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash joizki, korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlash muhim omillardan biri hisoblanadi. "O'zbekneftgaz" AJ faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki, 2020–2022-yillarda kompaniya yirik investitsion va ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirishi natijasida xarajatlar hajmi yuqori bo'lgan. Biroq, ushbu xarajatlar uzoq muddatda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, daromad bazasini kengaytirish hamda kompaniyaning bozor pozitsiyasini mustahkamlash uchun zamin yaratadi (2-rasm).




2-rasm. "O'zbekneftgaz" AJning joriy likvidlilik koeffitsiyenti [14]

2-rasm ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, "O'zbekneftgaz" AJning joriy likvidlilik koeffitsiyenti tahlil qilinayotgan davrda me'yoriy darajaga yaqinlashish va uni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini namoyon etadi. Amaldagi me'yorga ko'ra, kompaniyaning joriy likvidlilik koeffitsiyenti kamida 1,25 darajada bo'lishi tavsiya etiladi.

Korxonaning joriy likvidligini me'yoriy talab darajasida saqlash va yanada mustahkamlash joriy aktivlar hamda joriy majburiyatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashni talab etadi. Fikrimizcha, ushbu muvozanat quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'lishi maqsadga muvofiq:

- joriy aktivlarning o'sish sur'ati joriy majburiyatlarning o'sish sur'atidan kam bo'lmasligi;
- debitor va kreditor qarzdorliklarning o'sish sur'atlari o'rtasida mutanosiblikni ta'minlash;
- pul mablag'larining joriy aktivlar tarkibidagi ulushini barqaror darajada saqlash;
- likvid aktivlar hajmini bosqichma-bosqich oshirish orqali korxonaning moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlash.

Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi kompaniyaning to'lov qobiliyatini oshirish, moliyaviy risklarni samarali boshqarish hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi (3-rasm).



3-rasm. "KHANTEX-GROUP" MChJning joriy likvidlilik koeffitsiyenti [15]


3-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, "KHANTEX-GROUP" MChJ joriy likvidlilik koeffitsiyenti bo'yicha likvid korxonalar qatoriga kiradi. Bu holat korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish imkoniyatlari mavjudligini hamda moliyaviy barqarorligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, "KHANTEX-GROUP" MChJ joriy aktivlari tarkibida pul mablag'larining ulushi 2020–2024-yillarda nisbatan past darajada shakllangan. Jumladan, 2024-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, jamiyatning joriy aktivlari tarkibida pul mablag'larining ulushi 2,5 foizni tashkil etgan. Mazkur holat korxonaning aylanma mablag'larini ishlab chiqarish va tijorat faoliyatiga faol yo'naltirayotganligini ko'rsatadi.

"KHANTEX-GROUP" MChJning asosiy faoliyati paxta tolasini qayta ishlash, ip-kalava, to'qima va trikotaj matolar hamda tayyor kiyim-kechak mahsulotlarini ishlab chiqarishdan iborat.

Shunisi e'tiborliki, "KHANTEX-GROUP" MChJ tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning 40 foizdan ortig'i eksport qilinadi. Bu esa jamiyatning eksport salohiyati yuqori ekanligini hamda xalqaro bozorlarda o'z o'rniga ega ekanligini tasdiqlaydi. Eksport faoliyatining rivojlanganligi korxonaga valyuta tushumlarini muntazam shakllantirish imkonini beradi, bu esa o'z navbatida uning likvidligi va moliyaviy barqarorligini qo'llab-quvvatlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, "KHANTEX-GROUP" MChJning moliyaviy ko'rsatkichlari va eksport faoliyati korxonada likvidlikni samarali boshqarish hamda kelgusida moliyaviy salohiyatni yanada oshirish uchun zarur imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi (4-rasm).



4-rasm. "KHANTEX-GROUP" MChJda tannarxning mahsulotlarni sotishdan olingan tushum hajmidagi salmog'i, foizda [15]



4-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, "KHANTEX-GROUP" MChJda tannarxning mahsulotlarni sotishdan olingan tushum hajmidagi salmog'i 2021–2023-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2024-yilda esa ushbu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 6,0 foiz punktga oshgan. Bu holat korxonada faoliyatiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillar mavjudligini ko'rsatadi hamda tannarxni optimallashtirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini anglatadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, "KHANTEX-GROUP" MChJ faol eksport faoliyati bilan shug'ullanadi. Eksport faoliyati xalqaro bozorlar va import qilinadigan resurslar bilan chambarchas bog'liq. So'nggi yillarda xalqaro bozorlardagi narxlarning o'zgarishi va valyuta kurslaridagi tebranishlar import xarajatlariga ta'sir ko'rsatgan. Natijada, eksportyor korxonalarida ishlab chiqarish tannarxining o'zgarishi kuzatilgan.

Bundan tashqari, xalqaro logistika tizimidagi o'zgarishlar va transport yo'nalishlarining qayta shakllanishi tashish xarajatlariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, ushbu omillar korxonalarini logistika jarayonlarini takomillashtirish, yangi transport yo'nalishlarini izlash va xarajatlarni optimallashtirish bo'yicha samarali choralarni amalga oshirishga undamoqda.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston eksportyorlari uchun xalqaro transport-logistika infratuzilmasini yanada rivojlantirish tashqi bozorlardagi raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Suv transporti xalqaro tashuvlarda iqtisodiy jihatdan samarali transport turlaridan biri hisoblanib, undan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish eksport salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Marketing tadqiqotlari sifatini oshirish korxonalariga tovarlarga bo'lgan talabni aniqlash, moliyalashtirish manbalarining yetarililigi baholash, aylanma mablag'lar zaxiralarini shakllantirish, raqobat muhitini tahlil qilish hamda asosiy vositalarning texnik holatini baholash aniqligini oshirish imkonini beradi.

Texnologik risklarni boshqarish bo'yicha tavsiya etiladigan tadbirlar:

- tashqi konsultantlar hisobotlari asosida loyiha jarayonlarini muntazam monitoring qilish;
- loyihaning kadrlar ta'minotini tahlil qilish;
- aylanma mablag'lar zaxirasini o'z vaqtida shakllantirish;
- uskunalarni sug'urtalash;
- loyiha bo'yicha belgilangan me'yor va standartlarga rioya etilishini nazorat qilish.

Moliyaviy risklarni boshqarish bo'yicha tavsiya etiladigan tadbirlar:

- moliyalashtirish manbalari tarkibida o'z mablag'lari ulushini oshirish;
- aksiyadorlarning qo'shimcha moliyalashtirish bo'yicha kafolatlarini shakllantirish;
- loyihalarni banklarning kredit liniyalari orqali moliyalashtirish;
- investitsiyalarni sug'urtalash;
- aylanma mablag'larni moliyalashtirish imkoniyatlarini baholash.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlash ularning barqaror rivojlanishining muhim omillaridan biridir. O'z navbatida, korxonalarining raqobatbardoshligi ishlab chiqarish samaradorligi, mahsulot sifati, innovatsion rivojlanish darajasi, moliyaviy barqarorlik hamda bozor talablariga moslashuvchanlik kabi omillar bilan belgilanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidiligi tahlil qilish natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

– 2018-2024-yillarda "O'zbekneftgaz" AJ joriy aktivlari tarkibida debitor qarzdorlik yuqori ulushni egallagan. Bu kompaniyaning hamkorlar bilan faol hisob-kitob munosabatlarini amalga oshirayotganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, pul mablag'lari ulushini oshirish orqali likvidlik ko'rsatkichlarini yanada mustahkamlash imkoniyatlari mavjud;

– 2018-2024-yillarda "O'zbekneftgaz" AJ joriy majburiyatlari tarkibida asosiy ulushni qisqa muddatli qarzarlar hamda kreditor qarzdorlik tashkil etgan. Kompaniya faoliyatida tijorat banklari kreditlari va sho'ba korxonalar bilan hisob-kitoblar muhim moliyalashtirish manbai sifatida xizmat qilgan;

– 2018-2023-yillarda "O'zbekneftgaz" AJning joriy likvidlik koeffitsiyenti me'yoriy darajaga yaqinlashish va uni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatdi. Amaldagi me'yorga ko'ra, joriy likvidlik koeffitsiyentining kamida 1,25 darajada bo'lishi tavsiya etiladi;

– 2018–2023-yillarda "KHANTEX-GROUP" MChJ joriy likvidlik koeffitsiyenti bo'yicha ijobiy natijalarni namoyish etdi. Shu bilan birga, joriy aktivlar tarkibida pul mablag'lari ulushini oshirish korxonaning moliyaviy moslashuvchanligini yanada kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin.



O'zbekiston Respublikasida xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidligini yanada mustahkamlash maqsadida quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- bank kreditlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, debitor qarzdorlikning aylanish tezligini oshirish hamda likvid aktivlar va joriy majburiyatlar o'sish sur'atlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash orqali joriy likvidlik darajasini mustahkamlash;

- mahsulot tannarxining mahsulotlarni sotishdan olingan tushumdagi ulushini optimallashtirish orqali korxonalarining rentabellik darajasini oshirish;

- sof foyda va aktivlar o'sish sur'atlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash orqali aktivlar rentabelligini yaxshilash;

- debitor qarzdorlikning aylanishini jadallashtirish, faktoring xizmatlari amaliyotini takomillashtirish, pul oqimlari barqaror bo'lgan korxonalar bilan ishlash mexanizmlarini rivojlantirish hamda faktoring xizmatlari bozorida samarali raqobat muhitini shakllantirish orqali korxonalarining likvidlik ko'rsatkichlarini yanada yaxshilash.

Umuman olganda, likvidlikni samarali boshqarish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va zamonaviy moliyaviy instrumentlarni keng joriy etish xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi, investitsiyaviy jozibadorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>

2. Тимофеева К.А., Помелов Д.В. Управление ликвидностью // Азимут научных исследований. – 2014. – № 3. – С. 99–101.

3. Караева Ф.Е., Абазова З.К. Ликвидность и платежеспособность сельскохозяйственных организаций КБР: теоретический фундамент и статистический обзор // Научные известия. – 2019. – № 15. – С. 91–99.

4. Курилова А.А. Экономические процессы внутреннего контроля как элемента финансового механизма управления на предприятии автомобильной промышленности // Азимут научных исследований: экономика и управление. – 2014. – № 2. – С. 34–37.

5. Мухачёва А.В., Морозова Е.А., Пастухова Е.Я. Ретроспективная экономика: преодолены ли последствия «непризнанного» экономического кризиса 2014 года в индустриальных регионах России? // Муниципалитет: экономика и управление. – 2019. – № 2(27). – С. 18–31.

6. Ковалев В.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. – М.: ООО «ТК Велби», 2013. – 244 с.

7. Зубова Е.В. Проблемы платежеспособности и ликвидности российских предприятий // Инновационные технологии в машиностроении, образовании и экономике. – 2017. – Т. 5. – № 2(4). – С. 56–60.

8. Ларина Д.О., Кравченко О.В. Способы повышения ликвидности и платежеспособности. – Самара: Самарский университет государственного управления «Международный институт рынка», 2021. – С. 35–39.

9. Хабарова А.С., Баранова И.В. Ликвидность как ключевая характеристика финансового состояния организации // Сибирская финансовая школа. – 2020. – № 2. – С. 28–39.

10. Бородин В.И. Международный факторинг как внешнеэкономическая сделка // Международные банковские операции. – М., 2008. – № 1. – С. 31.

11. Gitman L.J., Zutter C.J. Principles of Managerial Finance. 14th Edition. – New York: Pearson Education, 2018. – 928 p.

12. Ендовицкий Д.А. Комплексный анализ и контроль инвестиционной деятельности: методология и практика. – М.: Финансы и статистика, 2001. – 400 с.

13. Банковское дело: учебник / под ред. О.И. Лаврушина. – М.: КНОРУС, 2016. – С. 367.

14. "O'zbekneftgaz" AJning moliyaviy hisobotlari. <https://www.ung.uz>

15. "KHANTEX-GROUP" MChJning moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>